



**BARKAMOL AVLODNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA
TARBIYALASHNING AHAMIYATI.**

Muminova Muqaddas Risqulovna.

JDPU Musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi Asqarova Parvina

O'zbekiston Respublikasining dunyo ta'lim fazosiga kirishi, jamiyatdagi yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar umumta'lim maktablari oldiga ko'pina o'quv-tarbiyaviy jihatlarini, shu jumladan o'tmishdagi milliy an'analarni va tajribalarni o'rganishga va ularga o'quvchilarni yoshligidanoq jalb qilishga bo'lgan qarashlarni tubdan qayta ko'rib chiqish talabini qo'ydi. O'zbek xalqlarining milliy o'zligini anglashini rivojlantirish sharoitida xalq pedagogikasi ilg'or tarbiyaviy an'alarining roli va ahamiyati jamiyatni jipslashtirishning insonparvarlik an'alarida, mehnatda, oilada, jamiyatda ahloqiy o'zaro munosabatlarning o'sishida namoyon bo'ladi. Bu an'alar xulq boshqaruvchisi rolini bajaradi.

Ta'lim jamiyatlarning madaniy qadriyatlari va tarixiy to'plamlarini avloddan avlodga yetkazuvchi vositadir. Bunda ta'lim mazmuniga milliy an'analarni singdirish o'quvchilarning o'zligini anglashi va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'alar nafaqat o'tmish izlarini olib yuradi, balki hozirgi ijtimoiy dinamikaga ham ta'sir qiladi. O'quvchilar o'zlarining madaniy merosini o'rganib, bu merosga ega bo'lganlarida, ular o'zlarining o'ziga xosligini shakllantirish va ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimiga milliy an'analarni singdirish o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi bilan o'sishiga yordam beradi. Bundan tashqari, turli madaniy elementlarni birgalikda baholash ko'p madaniyatli dunyoqarashni rivojlantirishga imkon beradi. "Ta'lim dasturining bu tarzda ishlab chiqilishi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga va ijtimoiy moslashuviga yordam beradi" Shunday qilib, ta'lim jarayonlariga madaniy qadriyatlarni kiritish nafaqat bilimlarni uzatishni, balki qadriyatlar tizimini mustahkamlashni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Milliy mafkura tashuvchisi sifatida xalqning ilg'or tarbiyaviy an'alariga murojaat qilish muhim insonparvarlik, ijtimoiy-ahloqiy, etno-madaniy ahamiyat kasb etadi. Akademik A.E.Izmaylov shunday deydi: "Xalq avloddan avlodga o'zining ijtimoiy tajribasini, ma'naviy boyligini katta avlodning kichigiga merosi sifatida uzatib boradi va shu bilan jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini yaratadi..."¹³⁸ . Shundan kelib chiqib zamonaviy bosqichda o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning





ilg'or milliy o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uni yangi sharoitlarda hayotga va mehnatga tayyorlash, shuningdek xalq mehnat an'analari, urf odatlaridan o'quvchilar shaxsini shakllantirishda foydalanish yo'llari, shakllari va metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, xalq pedagogikasida, uning tamoyillari va qarashlarida mehnat kishilarining bir necha marta xalq hayotining boy amaliyotida tekshirilgan va tasdiqlangan, ko'p asrli tarbiyaviy tajribasi mujassamlangan. Xalq urf-odatlari, tadbirlari, bayramlarining mazmuni tahlil qilinadi. Urfodatlar insonlarning ko'p asrli faoliyatlari – mehnati, turmush va oilaviy ta'sirlari natijasida yuzaga keladigan xalq udumlarining o'zaro bog'langan zanjiri sifatida qaraladi. Tadbirlar an'analarning badiiy shakli sifatida qaraladi, ularning ma'lum g'oyalari va etnik meyorlari timsoliy tarzda musiqa, ashula, raqs, shuningdek publitsistika va badiiy chiqishlar vositasida ifodalanadi. Bayramlar insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiy faoliyati to'plami, an'anaviy shakli sifatida tavsiflanadi.

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi, qonuniyatlari va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili, madaniy an'analarga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi.

Zero, qator aytilgan bu fikrlar zahirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim-tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Xalqimizning o'tmish an'analari, milliy urf-odatlari, milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analari saqlash va rivojlantirish, yosh avlodga san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamjihatlik, madaniy- ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu yaratilayotgan imkoniyatlarning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy xalq qo'shiqlari, musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini oshirish, jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analarga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirish, o'quvchilarning ma'naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, milliy va jahon musiqasi, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida talabalarda





yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha bilimlarning boshlang'ich asoslarini o'rgatish orqali ularni musiqa va san'at olamiga jalb etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, milliy musiqa san'atimiz va xalq qo'shiqlari asoslarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida jamiyat hayotining barcha yo'nalishlarida bo'lganidek, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan musiqa ta'limi mazmuni milliy musiqiy meros to'grisidagi ma'lumotlar va asarlar bilan boyitildi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida ishilarini ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo'lib sanaladi. Musiqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo'shiq bilan, musiqa bilan tirik. Kuy-qo'shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go'zallikni tasavvur etish qiyin. Qo'shiq zavq ehtiyoji, eng go'zal, eng oliyjanob orzu va hayotiy g'oya hayqirig'idir. Xalq qo'shiqlari umuminsoniy qadriyatlarini o'quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar o'quvchilarda milliy kuy-qo'shiqlarga ixlos uyg'otadi, musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg'usini o'stirib, musiqiy o'quvi va didini o'stiradi, talabalarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo'shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi, alla, lapar, terma qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyakubov.K (2020). Mehnat tarbiyasi orqali o'quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashishlarini taminlash. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1051-1056.
2. N.Xasanova.Musiqa fanini o'qitilishida innovatsion texnologiyalarning ta'limda samaradorligi. Xalq ta'limi. ilmiy metodik jurnali. 3- Maxsus son. 2021-yil
3. N.Xasanova. Innovative Methods Of Teaching Music At The institution Of Additional Education (on The Example Of Childern's Music School. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Volume 2022 Issue 1.Article
- 4.N.Xasanova.O'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetentsiyani shakllantirishda musiqa darsining ahamiyati. Ta'lim texnologiyalari ilmiy uslubiy jurnal 2017 yil
- 5.N.Xasanova.Shaxs kamolotini shakllanishida musiqa va tarbiyaning uzviy bog'liqligi. Tafakkur ziyosi. Ilmiy- uslubiy jurnal. 2023-yil

